

LAKSHMI MABUDASINING HIND JAMIYATIDAGI
IJTIMOIY-MA'NAVIY AHAMIYATI

SOCIO-SPIRITUAL SIGNIFICANCE OF THE LAKSHMI DEITY IN
INDIAN SOCIETY

СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ БОЖЕСТВА ЛАКШМИ В
ИНДИЙСКОМ ОБЩЕСТВЕ



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-23-92-96>

Giyazova Bernora Mansurovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Sharq tillari kafedrası” o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston

aronreb1983@gmail.com

Annotatsiya:

Hindizm panteonida ma'budalar alohida o'rin tutadi va ular orasida eng ko'p hurmat qilinadiganlaridan biri Lakshmi ma'budasidir. Lakshmi ma'bud Vishnuning jufti haloli sifatida koinotdagi muvozanat va farovonlikni saqlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada Lakshmi ma'budasining hind mifologiyasidagi o'rni, uning genezisi va hind madaniyatidagi o'rni tahlil qilinadi.

Tayanch so'z va iboralar: Lakshmi, Shri, Devi, Sarasvati, Durvasa, boylik, omad, baxt, Kama, Vishnu, Rama, Sita, Lokmata, hind madaniyati.

Аннотация:

В индуистском пантеоне, богини занимают особое место и одной из самых почитаемых среди них является богиня Лакими. Лакими, как супруга бога Вишну, служит для поддержания баланса и процветания во Вселенной. В данной статье анализируется роль богини Лакими в индуистской мифологии, её происхождение и место в индийской культуре.

Ключевые слова: Лакими, Шри, Деви, Сарасвати, Дурваса, богатство, удача, счастье, Кама, Вишну, Рама, Сита, Локмата, индийская культура.

Abstract:

In the Hindu pantheon, goddesses occupy a special place and one of the most revered among them is the goddess Lakshmi. Lakshmi, as the consort of the god Vishnu, serves to maintain balance and prosperity in the universe. This article analyzes the role of goddess Lakshmi in Hindu mythology, her origin and place in Indian culture.

Keywords: Lakshmi, Sri, Devi, Saraswati, Durvasa, wealth, luck, happiness, Kama, Vishnu, Rama, Sita, Lokmata, Indian culture.

"Hind madaniyati va tarixiga qiziqqan har bir kishi Lakshmi nomini bir marta bo'lsa ham eshitgan. **Lakshmi - hind mifologiyasida boylik, omad, baxt va go'zallik ma'budasi hisoblanadi.** Hindular u bor joyda doim to'kin-sochinlik va xonadon xotirjamligi bo'ladi deb ishonadilar.¹ Bugungi kunda ham millionlab hindular ushbu ma'budga e'tiqod qilib, undan o'z uylariga qut-baraka olib kelishini so'rab murojaat qiladilar.

Lakshmi ma'budasining kelib chiqishi haqida turli xil fikrlar mavjud bo'lib unda Lakshmi so'zining ma'nosi Sanskrit tilidan olingan bo'lib, "belgi", "yaxshi belgi", "baxt", "go'zallik" ma'nolarini anglatadi. Uning boshqa ismi Shri bo'lib, - "farovonlik", "baxt", "shon-sharaf" ma'nolarini anglatadi. Lakshmi va Shri ikki hil ma'buda sifatida kech hind adabiyotida va Yajurvedada paydo bo'ladi va aftidan Oriylargacha bo'lgan substratdan² olingan ko'rinadi. Ehtimol Lakshmi unumdorlik va farovonlik ma'budasi bo'lgan. Ikki obraz faqatgina Upanishadalar davrida birlasha boshlaydi, lekin hatto Mahabharatada ham Lakshmi va Shri o'rtasida bitta ma'budaning ikkita gipostasi³ sifatida bir oz farq bor. Eng keng tarqalgan g'oyalarga ko'ra, Lakshmi Vishnuning rafiqasi. Eng qadimgi matnlarda va hatto "Mahabharata" va ba'zi "Puranalar"da Lakshmi Prajapati-Brahma Kubera, Dharma, Indra bilan bog'liq deyilgan. "Mahabharata"da Lakshmining timsoli yani tajassumi Draupadi deb hisoblanadi, uning besh turmush o'rtog'i Pandavlar esa Indraning tajassumidir. Harivanshada sevgi ma'budi Kama, Lakshmi va Dharmaning o'g'li deb ataladi. Ba'zida Lakshmi donolik ma'budasi Sarasvati bilan taqqoslanadi, ammo ba'zi matnlarda Lakshmi va Sarasvati Brahmaning bir-biriga raqib ikki umr yo'ldoshi ham deyiladi.⁴

Lakshmi ma'budasining kelib chiqishi haqida yana bir manbadan olingan ma'lumotga ko'ra, Vishnu Puranada yozilishicha, bir vaqtlar donishmand Durvasa osmon ma'budi Indra sharafiga gullardan gulchambar sovg'a qilgan, Indra esa ushbu gulchambarni filining boshiga taqib qo'ygan. Fil esa gulchambarni yerga tashlab yuboradi. Buni ko'rgan donishmand Durvasa g'azablanib, "sening takabburliging tufayli sa'y-harakatlaring barbod bo'ladi, saltanating tortib olinadi" - deb Indrani duoibad qiladi. Shundan keyin jinlarning dahshatlari shunchalik kuchayadiki, ular uch dunyoda hukmronlik qiladilar. Devlar Indra taxtini ham tortib oladilar. Ushbu voqeadan so'ng ma'budlar Vishnu ma'budining oldiga boradilar va undan madad so'raydilar. Vishnu ularga okeanni shopirishni maslahat beradi va bu bilan ular nektar olishlari, uni ichish orqali ular manguqlikka erishishlari va bu manguqlik tufayli ular jangda devlarni mag'lub eta olishlarini ta'kidlaydi.

¹ Большая энциклопедия. (В 30 томах). Гл.ред. А.М.Прохоров. Изд. 3-е. М., "Российская Энциклопедия". 1973. – С. 126.

² Substrat (tilshunoslikda) - muayyan bir lingvogeografik hududda tarqalgan tilda barcha til sathlariga mansub belgi va hodisalarning majmui. Bu belgi va hodisalar kelib chiqishiga ko'ra avval shu hududda mavjud bo'lib, keyin yo'qolib ketgan tilga tegishli bo'ladi, boshqacha aytganda, S. mag'lub tilning g'olib tilda qoldirgan izlari.[https://uz.wikipedia.org/wiki/Substrat_\(tilshunoslik\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Substrat_(tilshunoslik))

³ **Gipostas** (grekcha *hypostasis* - «asos», «mohiyat», «shaxs») - falsafa va xristian ilohiyotida (teologiyasida) markaziy o'rin tutadigan tushunchadir. Bu atama asosan ob'ektlarning real va individual mavjudligini, shuningdek, Muqaddas Uchlik qiyofalarini ifodalaydi.https://yanko.lib.ru/books/encycl/hist_of_philosophy/encycl_gricanov.htm

⁴ О.П. Валянская «Женщина в мифах и легендах» Энциклопедический словарь. Т., 1992. С. 145-146.

Vishnuning soʻziga koʻra, maʼbudlar devlar bilan birgalikda Ksheer Sagarda okeanni shopiradilar va nektar bilan birga 14 ta qimmatbaho toshlarni ham qoʻlga kiritadilar. Ona Lakshmi ham bu okean chayqalishidan vujudga kelgan deyiladi⁵.

Baʼzi afsonalarga koʻra, u Vishnu bilan bir vaqtda paydo boʻlgan, boshqa manbaʼlarga koʻra u Afrodita kabi okeanning koʻpiklaridan paydo boʻlgan. U odatda lotosda oʻtirgan, koʻpincha qoʻlida lotos bilan, goʻzal ayol sifatida tasvirlangan. Boshqa tasvirlarda esa Lakshmining ikki yonida Ikki fil, hartumidan suvni uning ustiga purkab turgan koʻrinishda ham tasvirlangan.⁶

Boshqa fikrlarga koʻra, Lakshmi yaratilishning eng boshida, lotos gulida suzib yurgan toza suvdan paydo boʻlgan va shuning uchun uning ismlari Padma yoki Kamala («лотосная») deb nomlangan. Lakshmini, Indra - (“chiroyli” yoki “kuchli”) va Lokmata - (“dunyo onasi”) ismlari bilan ham atashadi.⁷

Internet maʼlumotlariga koʻra Lakshmi soʻzi “maqsad” maʼnosini anglatuvchi sanskrit tilidagi “*Lakshya*” soʻzidan kelib chiqqan va hind imonida har qanday moddiy va maʼnaviy boylik va farovonlik maʼbudasidir deyilgan.⁸

“Большой энциклопедический словарь”dan olingan maʼlumotga koʻra Lakshmi Vishnu maʼbudning rafiqasi va Kama sevgi maʼbudning onasidir. Afsonaga koʻra Lakshmi nilufar gulida oʻtirgan koʻrinishda sut dengizining koʻpiklaridan (maʼbudlar dengizni chayqatganida) paydo boʻlgan va hindular bu gulni Lakshmi maʼbudasining ramzi deb biladilar. Umr yoʻldoshi Vishnu maʼbudining yer yuzidagi tajassumlariga ergashib, u Ramaning rafiqasi Sita va Krishnaning ayoli (sevgilisi Radha boʻlgan) Rukmini edi. Hinduizm dinida kuz mavsumida nishonlanadigan “Divali” bayrami Lakshmi maʼbudasiga bagʻishlangan.⁹ Yana bir manbaga koʻra u Bhrigu va Khʼyatining qizi deb tasvirlangan.¹⁰ Boshqa manbalarga koʻra Lakshmi brahmanizm va hinduizm dinida, baxt va goʻzallik maʼbudasi, Vishnuning ijodiy kuch-qudratining timsoli hisoblanadi.¹¹

“Қадимги ҳинд маданиятига оид сўзлар луғати”da¹² Lakshmi – “Ramayana”ga koʻra, shopirilish natijasida okeanning qaʼridan paydo boʻlib, qoʻlida nilufar ushlagan goʻzal ayol siymosida tasvirlanadi. Boshqa nomlari Padma, Hira, Indira va h.k.¹³

Yana bir internet maʼlumotiga koʻra Lakshmi bolalarga mehribon va sovgʻalar ulashishda saxiydir. Onalik hissiyotlari va Narayana (Oliy mavjudot)ning rafiqasi

⁵ <https://www.jagran.com/spiritual/puja-path-know-story-of-devi-maa-lakshmi-derivation-and-the-benefits-of-doing-worship-20435608.html>

⁶ А. Бэшем «Чудо которым была Индия», «Наука», М., 1977. – С. 342.

⁷ О.П. Валянская «Женщина в мифах и легендах» Энциклопедический словарь. Т., 1992. С. 145-146.

⁸ <https://uz.eferrit.com/lakshmi-boylik-va-gozallikning-hindu-mabudasi/>

⁹ Большой энциклопедический словарь. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: “Большая Российская энциклопедия”; СПб.: “Норинт”, 2000. – С. 411.

¹⁰ Мифы народов мира. Энциклопедия. (В 2 томах). Гл. ред. С.А.Токарев. М.: 1982. – т. 1. К-Я. – С. 35.

¹¹ Большая энциклопедия. (В 30 томах). Гл.ред. А.М.Прохоров. Изд. 3-е. М., “Российская Энциклопедия”. 1973. – С. 126.

¹² О.Н. Шоматов “Қадимги ҳинд маданиятига оид сўзлар луғати”. Т., 2005. С. 42.

¹³ О.Н. Шоматов “Қадимги ҳинд маданиятига оид сўзлар луғати”. Т., 2005. С. 42.

bo'lgani sababli, unga Koinotning Onasi unvoni berilgan. Lakshmi Vishnu ma'budining rafiqasi, u o'zining barcha tajassumlari bilan turmush qurgan.¹⁴

Masalan: Rama davrida u – Sita, Krishna davrida – Rukmini edi. Lakshmi to'rt qo'llari bilan, nilufarda o'tirgan, hashamatli libos kiygan va zargarlik buyumlari bilan bezatilgan go'zal ayol sifatida tasvirlangan. Nilufargul Shri-Lakshmining poklik va ruhiy kuchi bilan uzviy bog'liqligini anglatadi.¹⁵

Yana bir manbaga ko'ra Hindiston aholisi uchun go'zallik ma'budasi bu Lakshmi ma'budasi deyilgan. Bundan tashqari, u mo'l-ko'lchilik, farovonlik, boylik, omad va baxtning homiysi deb ataladi. U inoyatni, go'zallikni va jozibani aks ettiradi. Odamlar, uning muxlislari, albatta, baxtsizlik va qashshoqlikdan himoyalanganligiga ishonishadi. Vishnuizmning bir yo'nalishida u nafaqat farovonlik ma'budasi, balki koinotning mehribon onasi hamdir deyilgan.¹⁶

Hindular Lakshmiga chin dildan sajda qilgan kishi omad va muvaffaqiyat bilan taqdirlanishiga ishonadilar. Aytishlaricha, Lakshmi mehnatsevarlik va jasorat maskanlarida istiqomat qiladi. Hindlar Lakshmiga uyda ham, ibodatxonada ham sajda qiladilar. Ona ma'budaga sig'inish qadim zamonlardan beri hind urf-odatlarining bir qismi bo'lib kelgan. Lakshmi - an'anaviy hind ona ma'budalaridan biri va unga odatda “devi” “ma'buda” o'rniga “mata” “ona” deb murojaat qiladilar. Hozirgi kunda ham hind jamiyatida Lakshmi ma'budasi eng keng tarqalgan ma'budalardan biri bo'lib, boylik va poklik ma'budasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. О.Н. Шоматов “Қадимги ҳинд маданиятига оид сўзлар луғати”. Т., 2005.
2. Жалилова Ш.Е. “Қадимги ҳинд маданияти хрестоматияси”. Т., “Mumtoz So'z”, 2018.
3. Tursunov U. “Hozirgi O'zbek adabiy tili”-Т.,1965
4. Большая энциклопедия. (В 30 томах). Гл.ред. А.М.Прохоров. Изд. 3-е. М., “Российская Энциклопедия”. 1973.
5. О.П. Валянская «Женщина в мифах и легендах» Энциклопедический словарь. Т., 1992.
6. А. Бэшем «Чудо которым была Индия», «Наука», М., 1977. – С. 342.
7. Мифы народов мира. Энциклопедия. (В 2 томах). Гл. ред. С.А.Токарев. М.: 1982. – т. 1. К-Я.
8. रामचन्द्र वर्मा मानक हिन्दी कोश। पाँचवाँ खंड। हिन्दी साहित्य सम्मेलन, प्रयाग। १९६६.
9. उषा पूरी विद्यावाचस्पति। भारतीय मिथक कोश। नेशनल पब्लिशिंग। नई दिल्ली। १९९१.

¹⁴ <http://www.indiamyth.ru/world.php>

¹⁵ <http://www.indiamyth.ru/world.php>

¹⁶ <http://uz.tierient.com/gozallik-mabudasi-turli-mifologiyalardagi-sevgi-va-gozallik-mabudalarining-islamlari/>

10. Гиязова, Бернора Мансуровна. "ОБ ИЗУЧЕННОСТИ ВОПРОСА О БОГИНЯХ НА МАТЕРИАЛАХ КУЛЬТУР РАЗНЫХ НАРОДОВ." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.3 (2022).
11. Giyazova, Bernora Mansurovna. "Hindu ma'budasi Durga genezisi masalasiga doir." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2. Special Issue 25/2022.
12. Гиязова, Б. М., & Мамасолиев, Д. Ф. У. (2025). РОЛЬ ЯЗЫКА В ФОРМИРОВАНИИ ТРАДИЦИОННОГО ИНДИЙСКОГО ОБЩЕСТВА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5/2025.
13. <http://www.indiamyth.ru/world.php>
14. <https://www.jagran.com/spiritual/puja-path-know-story-of-devi-maa-lakshmi-derivation-and-the-benefits-of-doing-worship-20435608.html>
15. <https://uz.tierient.com/gozallik-mabudasi-turli-mifologiyalardagi-sevgi-va-gozallik-mabudlarining-ismlari/>
16. <http://ru.wikipedia.org>